

ETNOMADANIYATGA QADRIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Shirinov Otabek Tuvalovich*Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi psixologi*

Etnomadaniyatga qadriyatli munosabatda bo'lishni shakllantirish masalasini ilmiy o'rganish davomida empirik tadqiqot o'tkazib, olingan natijalarni predmetli tahlilini amalga oshirishda ijtimoiy va etnopsixologik ta'limotlarga doir nazariyalardan foydalanish lozim bo'ladi. Bu o'z navbatida bilim, aniqrog'i tadqiqotchining mustaqil tarzda bilim olish kompetentsiyasiga egaligi tadqiqotning mazmundorligini ta'minlaydi. Tadqiqot metodologiyasini to'g'ri tanlash, qo'llaniladigan psixometrik uslublarni etnomadaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda qo'llashni talab etadi.

Etnopsixologik xususiyatlar hududlar kesimida ham farqlanib, "arxaik" qadriyatlarni saqlab kelayotganligi bilan ham ajralib turadi. Bu farqlanish geografik va ijtimoiy muhitning ta'siri natijasida shakllanib, o'zgacha arxitektonikani ifoda etadi. Ularning mohiyatini anglash uchun, etnopsixologik xususiyatni aniq, ya'ni o'zgarmas belgilari asosida ajratish lozim bo'ladi. Buning uchun maishiy hayot tarzi yoki biron bir faoliyat turini (mehnat, muloqot, kognitiv va boshqalar) qiyosiy-tizimli tahlilini amalga oshirish tavsiya etiladi. Boz ustida, etnos psixologiyasining tarkibiy qismi etnik xarakter, etnik temperament, etnik urf-odat, etnik qiziqish hamda etnik ongdan tarkib topganligini inobatga olsak, shaxs kamolotini ta'minlashda psixolog uchun "psixologik qurol" vazifasini bajara oladi.

Yoshlarda etnomadaniyatga qadriyatli yondashuvni shakllantirishda "homo ethnicos" kontseptsiyasi, empirik tarzda jamlangan ma'lumotlarni strukturaviy-psixologik emas, balki funktsional-psixologik xarakteristikasini aniqlash imkonini berib, yaqqol ifodalanmagan, ya'ni etnomadaniyat vakilining takrorlanmas xarakterli xususiyatlarini aniqlash imkonini beri, ishlab chiqiladigan taklif va tavsiyalarni samaradorligini ta'minlash uchun ham muhim sanaladi [1]G'

Etnomadaniyatga qadriyatli munosabatni shakllantirishda multimediyaviy ta'limiy manbalarni tayyorlash va foydalanish

Multimediyaviy ta'lim manbalari turli hajm va shakldagi, jumladan matn, chizma, tasvir, sxema, jadval, diagramma, surat, video va audiolavha kabilarni yaratuvchi, saqlovchi, uzatuvchi va namoyish etuvchi vosita hisoblanib, chet tilidan ta'limiy materiallarni o'zlashtirish samaradorligi ta'minlaydi. Pedagogik nuqtai nazar bo'yicha multimedia texnologiya hisoblanib, multisensor idrokni faollashtirishga qaratilgan. Etnomadaniyatni o'qitishda multimediyaviy ko'rinishda axborotni uzatish multisensor idrokni faollashtirib, vosita sifatida axborotlarni jamlab, psixik faoliyat haqida bilimlarni jamlash va uzatishda foydalaniladi. Multimediyaviy ta'lim ommaviylashib, multimediyaviy vositalar deganda, o'quv va ilmiy axborotlarni majmuaviy tarzda tasvirlovchi, ta'lim sub'ektlari orasida uzliksiz hamkorlikni

ta'minlab, individual-o'quv faoliyatini tezkor tarzda ta'minlab, kasbiy faoliyatga yo'naltiruvchi didaktik vositalarni tushunish lozim[3]. Chet tilini o'qitish amaliyotida multimediyaviy manbalarni ta'lim jarayoniga tadbqiq etish, o'tilayotgan predmetning xususiy qonuniyatlari va madaniy mohiyatini, o'quv jarayonining ishtirokchilarini psixologik-pedagogik xususiyatlarini, ta'limiy aloqadorlikni ta'minlashda amal qiladigan didaktik printsiplar hamda uni qo'llash jarayonida pedagogik samaradorligini alohida inobatga olishni taqozo etadi. Multimediyaviy manbalarni tayyorlash va qo'llashda umumdidaktik va xususiy-metodik tamoyillarga amal qilish talab etiladi. Qoraqalpoq tilida ta'lim olib boriladigan muassasalarda chet tilini o'qitish jarayonida multimediyaviy manbalardan foydalanish quyidagi funktsiyalarni bajarishga yo'naltirilgan: chet tili o'qitishning sifat ko'rsatkichini etnomadaniyatni o'qitishda o'quv jarayonni kuchaytirishni (intensifikatsiyasini), ta'limiy manbalar bilan, etnomadaniyatni o'qitishda texnologiya tarzida, ta'lim vositasi, pedagogik-psixologik jarayonlarni rivojlantiruvchi, reflektiv tasavvur vositasi sifatida o'quv jarayonini faollashtiruvchi, madaniyatlararo va mediakompetentsiyalarning asosiy komponentlarini shakllantiruvchi hamda integrativligini ta'minlovchi kabilar. Chet tilini o'qitish jarayonida multimediyaviy manbalar nafaqat ta'limni interfaol vositasi, marketing usuli (special event) tarzida ishtirok etadi, balki talabalarda kasbga yo'naltirilgan muloqot kompetentsiyasini bosqichma bosqich shakllantirishni intensivligini ta'minlaydi. Multimediyaviy manbalarining sof didaktik funktsiyalari hisoblanmish: ta'limiy axborotlarni etkazuvchi texnik vosita, chet tili ta'limining texnik vositasi, o'zlashtirish jarayonini nazoratini amalga oshiruvchi vosita ekanligini namoyon bo'ladi.

Mazkur yondashuvlardan pedagogik faoliyat doirasida, aniqrog'i chet tilini o'rgatishda ham foydalanish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz. Negaki, har bir yondashuv funktsionalligi jihatidan aniq maqsad va mazmun kasb etib, chet tilini o'rganish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Masalan, semiotik yondashuvning mazmuni bo'yicha, madaniyat belgilar majmuasidan tarkib topgan bo'lib, ularning vositasida ijtimoiy axborot saqlanadi va manzilga uzatiladi. Madaniyatning "shoh ustuni" sifatida tabiiy til mujassamlanadi. Til, birlamchi modellashtiruvchi tizim hisoblanib, boshqa barcha madaniyatning elementlari ikkilamchi tizim hisoblanadi. Yu.Lotmananni ta'kidlashicha, "ular (ikkilamchi tizimlar, ya'ni moddiy madaniyat – I.M.) tabiiy tilning namunasi asosida qurilganG'tuzilgan bo'ladi"[4]. Ularning funktsiyasi esa axborotni saqlash va tizimlashtirishdan iboratdir. Madaniyat, funktsionalligi jihatidan, atrof-muhitni shakllantirib, mohiyatan turli namunalarni birlashtiruvchi va ajratuvchisi hisoblanadi. Ya'ni, madaniyatni moddiy va ma'naviyga ajratib, ma'naviyini moddiylashuvini belgilab beradi. Bu o'z navbatida dunyoni madaniy manzarasini tasvirlashda, dunyoning til manzarasiga tayanmasdan ayri holda tasvirlab bo'lmaydi. Etnomadaniyatni o'qitishda semiotik yondashuv amaliy mazmun

kasb etib, har bir belgi ma'lum bir madaniyat tizimida o'ziga xos mazmun kasb etishini o'qtirishi jihatidan ajralib turadi.

Ekzistentsial-madaniy yondashuv esa, madaniyatni borliq, vaqt, tabiat, dunyo manzarasi, belgilar-arxetiplar, gorizontalg'vertikal o'lchash, dunyoni yaratilishini tushunish kabi jihatlar bo'yicha differentsiatsiyalashni taqozo etadi. Madaniyatni shu tariqa differentsiatsiyalashtirish chet tilini o'qitish jarayonini, aniqrog'i mashqlar namunasini keltirish va ularni echish uchun sarflanadigan vaqtni mahsuldorligini ta'minlaydi. Masalan, inson signalni aniqlash uchun – 0,1 sekund, ko'z bilan predmetni belgilash uchun – 0,28 sekund, oddiy signallarni ajratish uchun – 0,4 sekund, uskuna (masalan, barometrda) ko'rsatkichini hisoblash uchun - 1 sekund, raqam yoki transportni idroklash uchun – 0,2 sekund, ettita sonli raqamni idrok etishi uchun 1,2 sekund vaqt sarflaydi [2]. Bu o'ziga xoslik, chet tilini multimedaviy manbalar vositasida o'qitish amaliyoti uchun tayyorlanadigan manbalarga axborot, bezak, ovoz, rang hamda predmetlarni (modellarni) harakt tezligini, ya'ni sur'atini belgilashda bir qator talablarga amal qilishni taqozo etadiG'

Chet tili ta'limida multimedaviy manbalardan foydalanish afzalliklari bilan bir qatorda, aniq fan sohasini tamoyillarini va qonuniyatlarini inobatga olishni, ta'limiy mavzu hamda ta'lim olib borilayotgan tilning fonetik, lingvistik hamda semantik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashishni taqozo etishi jihatidan murakkabdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Еникеев М.И. Общая, социальная, юридическая психология // Учебное пособие. – М., 2002. - С. 101.
2. Цветков В.Я., Тюрин А.Г. Управление потоками мультимедиа в образовательном пространстве Искусственный интеллект: философия, методология, инновации сборник трудов // VIII Всероссийской конференции студентов, аспирантов и молодых ученых 20-22 ноября 2014 г. МГТУ МИРЭА Часть II Секции 6-8. – Москва: Радио и Связь, 2014. – С. 54-62.
3. Хортон К., Хортон У. Электронное обучение: инструменты и технологии: Пер. с англ. – М.: Кудиц-образ, 2005. – 640 с., Александров К. В. Мультимедийный комплекс как средство обучения лексической стороне иноязычной речи студентов лингвистического вуза на материале немецкого языка // Автореф.. дисс...канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2009. – 22 с.
4. Леонтьев А.А. Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии. Избранные педагогические труды. – М., 2003. – 448 с.